

MOVAROUNNAHR ALLOMALARI VA ARAB TILSHUNOSLIGINING RIVOJLANISHI

Abbosxo‘jayeva Mubinaxon

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

1-kurs 25-02 guruh talabasi

Raxmonov Azimjon Komilovich

Alfraganus universiteti Filologiyasi fakulteti

Tillarni o‘qitish markazi rahbari

Annotatsiya. Maqolada Movarounnahr allomalari arab tilshunosligi rivojiga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Hududning tarixiy-madaniy konteksti, IX–XII asrlarda Movarounnahr ilmiy markazining ahamiyati, shuningdek, Mahmud Zamaxshariy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abu Muin Nasafiy kabi mashhur olimlarning faoliyati ko‘rib chiqiladi. Maxsus e‘tibor arab tili grammatikasi, morfologiyasi, lug‘atshunoslik va balog‘at bo‘yicha olib borilgan izlanishlarga qaratilgan. Tadqiqot Movarounnahr allomalari merosining hozirgi arab tili, filologiya, islomshunoslik va sharqshunoslik sohalaridagi ahamiyatini ko‘rsatadi. Shuningdek, maqola arab tilining ilmiy til sifatida shakllanishi va hududdagi ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga ta‘sirini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Movarounnahr, arab tilshunosligi, grammatikasi, lug‘atshunoslik, Zamaxshariy, filologiya, ilmiy meros.

Abstract. The article focuses on the contribution of Movarounnahr scholars to the development of Arabic linguistics. It explores the historical and cultural context of the region, the significance of the Movarounnahr scientific center during the IX–XII centuries, and the work of prominent scholars such as Mahmud Zamakhshari, Burhanuddin Marg‘inoni, and Abu Muin Nasafi. Special attention is given to their research in Arabic grammar, morphology, lexicography, and rhetoric. The study

emphasizes the importance of the Movarounnahr scholars' legacy for contemporary Arabic language studies, philology, Islamic studies, and Oriental studies. The research demonstrates that Arabic in Movarounnahr developed as a scientific language, contributing to both cultural and scholarly advancement in the region.

Keywords: Movarounnahr, Arabic linguistics, grammar, lexicography, Zamakhshari, philology, scholarly heritage.

Kirish. Yurtimiz juda ko'plab tarixiy manbalar diyoridir. Jumladan Movarounnahr — tarixiy-geografik atama bo'lib, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hududni anglatadi. Bu mintqa tarixan Markaziy Osiyoning eng yirik ilmiy-ma'rifiy markazlaridan biri bo'lgan¹. Ayniqsa IX–XII asrlarda — Islom uyg'onish davrida — Movarounnahr ilm-fanning deyarli barcha sohalarida dunyo miqyosida yetakchi mavqega ega bo'ldi². Bu mavqe albatta yurtimiz alomallari sharofati tufayli bo'lgan. Ayniqsa barcha sohalar rivojlanishi bilan birga arab tilshunosligi ham rivojlana bordi va bu rivojlanish natijasida yurtimizda arab tili bilimdonlar, dunyo tanigan olimlar yetishib chiqdi. Ularning olib borgan izlanishlari hozirgi davr yoshlariga arab tili va turkiy tillarning o'rganishlari uchun o'zgacha ishtiyoq bag'ishlamoqda. Movarounnahr allomalari nafaqat fiqh, hadis, tafsir, mantiq, falsafa, matematika, tibbiyot kabi fanlarda, balki arab tili va uning nazariy asoslari rivojida ham beqiyos meros qoldirganlar. Ayniqsa bu hududda yetishib chiqqan allomalar arab tili grammatikasi (nahv), so'z yasalishi (sarf), adabiyotshunoslik (balog'at), lug'at tuzish va filologiya sohalarida o'z davrining eng yetuk asarlarini yaratganlar. Ularning ilmiy faoliyati natijasida arab tili nafaqat diniy ilm sifatida, balki ilmiy izlanishlar, adabiyot, diplomatiya va xalqaro muloqot tili sifatida mustahkam o'rin egalladi.

Movarounnahr maktabi arab tilshunosligiga o'ziga xos yondashuvni olib kirgan bo'lib, mahalliy olimlar arab tilining fonetik, morfologik va leksik qatlamini chuqur

¹ Karimov, Akbar. Movarounnahrning Ilmiy-Ma'rifiy Merosi va Sharq Uyg'onishi. Tashkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti, 2019.

² Zamakhshariy Studies. Research on Al-Zamakhshariy's Contribution to Arabic Linguistics. Tashkent Oriental Studies Press, 2021.

tahlil qilganlar, mavjud grammatik qoidalarga izoh berib, uni yanada boyitganlar. Shuningdek, ular turkiy tillar bilan arab tilini qiyoslash, o'xshashlik va farqlarni ilmiy asosda yoritish ishlariga ham katta hissa qo'shganlar.

Mazkur maqolada Movarounnahr allomalari arab tilshunosligi rivojiga qo'shgan hissasi, ularning yaratgan asarlari, ilmiy maktablari va bugungi o'quvchi-yoshlar uchun qoldirgan bebaho ilmiy merosi yoritiladi. Shuningdek, arab tili ilmlarining rivojlanishida Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Mahmud Zamaxshariy, Abu Muin Nasafiy, Abu Homid Qulobodiy, Burhoniddin Marg'inoniy kabi ulug' allomalar faoliyati tahlil qilinadi. Ularning arab tili va lug'atshunoslikka oid izlanishlari nafaqat tarixiy meros, balki hozirgi davr tilshunoslik, tarjima, islomshunoslik va sharqshunoslik yo'nalishlarida ham muhim qo'llanma vazifasini o'tamoqda. Shu jihatdan mazkur mavzuning o'rganilishi ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega.

Movarounnahr IX–XII asrlarda Islom uyg'onish davrining eng faol ilmiy hududlaridan biri bo'lib, bu yerda fiqh, hadis, falsafa, tibbiyot, matematika va arab tilshunosligi yuksak darajada rivojlandi. Arab tili ilm, yozma madaniyat va davlat ishlarining asosiy vositasiga aylangani sababli mahalliy olimlar uni chuqur o'rgandilar, grammatik qoidalarni takomillashtirdilar, lug'atlar tuzdilar va balog'at hamda adabiyotshunoslik bo'yicha muhim asarlar yaratdilar³. Arab tilining keng qo'llanishi natijasida turkiy tillar bilan arab tili o'rtasida qiyosiy tahlil qilish imkoniyati paydo bo'ldi. Shu jarayon mahalliy olimlarga arab tili fonetikasi, sarf-nahv tizimi va lug'atshunoslikka oid izlanishlarni chuqur amalga oshirishga turtki berdi⁴. Movarounnahr olimlari arab grammatikasi (nahv) qoidalarini chuqur tahlil qilgan, murakkab sintaktik tuzilmalarni sharhlagan va yangi izohlar kiritganlar. Shuningdek, ular fe'l yasash, so'zlarning vaznlari, tub va yasama so'zlar tizimini tahlil qilib, ba'zi hollarda yangi qoidalar yaratdilar. Lug'atshunoslik va adabiyot sohasidagi izlanishlari orqali ular arab tilidagi nozik ma'nolarni yoritdilar, sinonim

³ Karimov, Akbar. Movarounnahrning Ilmiy-Ma'rifiy Merosi va Sharq Uyg'onishi. Tashkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti, 2019.B-45

⁴ Sodiqov, Ulug'bek. Movarounnahr va Arab Tilshunosligi Tarixi. Tashkent: Sharq Nashriyoti, 2020.B-32

va antonimlarni tahlil qildilar. Bu meros hozirgi zamon tilshunosligi va sharqshunoslikka muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu davrda yetishib chiqqan mashhur olimlar orasida quyidagilar alohida ajralib turadi: Mahmud Zamaxshariy – arab grammatikasi va lug'atshunoslik bo'yicha asarlar yaratgan. U — Movarounnahr allomalari orasida tilshunoslik va adabiyotshunoslikda eng mashhurlaridan biri bo'lib, uning asarlari arab grammatikasi, leksikografiya, balog'at va tafsirga oid. Uning “Al-Mufasssal fi sina'at al-e'rab” — (Arab tili grammatikasi bo'yicha chuqur ilmiy asar). Basri va Kufi grammatik maktablarining merosini sintez qilgan, tilshunoslikda struktural yondashuvni takomillashtirgan. Bundan tashqari, ilmiy merosi orasida “Mukaddamat al-adab va Asas al-balag'a” kabi adabiyotshunoslik va balog'atga oid asarlar ham bor, bu asarlar arab adabiyoti va uslubiyatini rivojlantirishda katta hissa qo'shgan⁵. Ustozlar va olimlar, tilni faqat grammatika darajasida emas, balki leksik, uslubiy va adabiy jihatdan ham chuqur o'rganishgan. Bu esa Movarounnahrni arab tilshunosligi maktabi sifatida dunyoga tanitdi Burhoniddin Marg'inoniy – arab tili adabiyoti va balog'atshunoslikka oid muhim izlanishlar qilgan, Abu Muin Nasafiy – til va uslub bo'yicha tahliliy asarlar yozgan. Ularning ishlari nafaqat Movarounnahr ilmiy maktabining rivojlanishiga, balki butun Sharq ilmiy madaniyatiga katta hissa qo'shdi va bugungi kunda ham arab tili va filologiya yo'nalishida ilmiy qo'llanma vazifasini o'taydi.

Movarounnahr ilmiy markazi IX–XII asrlarda nafaqat diniy fanlar, balki arab tilshunosligi sohasida ham yetakchi rol o'ynadi. Ushbu davrda mahalliy olimlar arab tili grammatikasi, sarf-nahv tizimi, lug'atshunoslik va balog'atshunoslik bo'yicha muhim izlanishlar olib bordilar. Ularning yaratgan asarlari va ilmiy izlanishlari nafaqat Movarounnahr ilmiy maktabini rivojlantirishga, balki butun Sharq ilmiy madaniyatiga katta hissa qo'shdi. Shuningdek, bu meros bugungi kunda ham arab tilini o'rganayotgan yoshlar, tarjimonlar va filologiya yo'nalishidagi tadqiqotchilar uchun muqaddas ilmiy qo'llanma sifatida xizmat qilmoqda. Movarounnahr

⁵ Mahmudov, Utkir. “Zamakhshari's 'Al-Mufasssal': A Unique Scientific Heritage in Arabic Linguistics.” *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2025, pp. 209–216.

allomalari orqali shakllangan arab tilshunoslik maktabi yosh avlodni ilmiy izlanishga, o'z ona tilini va arab tilini chuqur o'rganishga undaydi. Shu nuqtai nazardan, mazkur mavzuni o'rganish nafaqat tarixiy, balki amaliy ahamiyatga ham ega. Arab tili faqat diniy yoki madaniy meros tilidan iborat bo'lib qolmay, Movarounnahrda ilmiy tilga aylandi. Bu — nafaqat grammatika va adabiyot, balki tafsir, hadis, tarix, falsafa, adabiyotshunoslik kabi ko'plab ilm sohalarida arab tilida ilmiy ijod bo'lishiga imkon berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov Akbar. Movarounnahrning ilmiy-ma'rifiy merosi va sharq uyg'onishi. Tashkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2019.
2. Zamakhshariy studies. Research on Al-Zamakhshariy's contribution to Arabic linguistics. Tashkent Oriental Studies Press, 2021.
3. Sodiqov Ulug'bek. Movarounnahr va Arab tilshunosligi tarixi. Tashkent: Sharq Nashriyoti, 2020.B-32
4. Mahmudov Utkir. "Zamakhshari's 'Al-Mufassal': A Unique Scientific Heritage in Arabic Linguistics." *Oriental Journal of History, Politics and Law*, 2025, pp. 209–216.
5. Raxmonov, A. (2025). MUTARRIZIYNING "RISALATUN FIN-NAHV" ASARIDA TIL O'QITISH USULLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 5(20), 126-130.
6. Рахмонов, А. К. (2025). АБУЛФАТХ БУРХОНИДДИН НОСИР МУТАРРИЗИЙ–ЎРТА АСР ШАРҚ ИЛМИЙ МЕРОСИНING ЁРҚИН НАМОЁНДАСИ. *Oriental Journal of Philology*, 5(3), 549-560.
7. MUTARRIZIYNING "RISOLATUN FIN NAHV" ASARI MO'JAZ GRAMMATIKMANBA.(2025). *Barqaror Taraqqiyot Va Rivojlanish Tamoyillari*, 3(4),85-88.<https://uzresearchers.com/index.php/BTRT/article/view/2528>
8. NOSIR AL-MUTARRIZIY MEROSIDA TARJIMA NAZARIYASI VA DIDAKTIKASI: "RISALATUN FIN-NAHV" ASARI VA ZAMONAVIY

TARJIMA TA'LIMI INTEGRATSIYASI. (2025). *SCIENCE TIME*, 3(5), 150-155. <https://doi.org/10.66345/stj.v3i5.4640>

9. Prakashan, A. Central Asia: Literary Cultural Scenario and Hindi.